QOBILOV H.X. SALIYEVA O.K.
MIZOMOV M.S. SHARIPOVA N.R

"MARKAZDAN QOCHMA KUCH MAYDONIDA NEFT SHLAMLARINI AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH"



Buxoro-2021 y

SCAN AnyScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Qobilov H.X., Saliyeva O. K., Mizomov M.S., Sharipova N.R.

“MARKAZDAN QOCHMA KUCH MAYDONIDA NEFT SHLAMLARINI AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH”

MONOGRAFIYA

“BUXORO NASHR”
BUXORO 2021

35.514
32.98
M 28
Qobilov H.X.

Markazdan qochma kuch maydonida neft shlamlarini ajratish jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish. Monografiya / Qobilov H.X., Saliyeva O. K., Mizomov M.S., Sharipova N.R.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ilmiy kengashida ko`rib chiqildi va chop ettirish uchun tavsiya etildi (2021 yil "18.10" 4-son majlis bayonnomasi).

УЎК 35.514

КБК 32.98

Taqrizchilar:

S.B. Usmonov – Buxoro neft va gaz sanoati kasb-hunar kolleji direktori.

Q.Q. SHaripov – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Neft-gaz ishi" kafedrasi mudiri, dottsent

H.X. Qobilov., O. K. Saliyeva., M.S. Mizomov., N.R. Sharipova Markazdan qochma kuch maydonida neft shlamlarini ajratish jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish. Buxoro: Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. 2021. - 99 b

Bugungi kunda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun neft shlamlari chiqindilarni utilizatsiyalashning samarali usullarini joriy etish jumladan, neft shlamlarini tozalash jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash orqali avtomatik boshqarish tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Neftni qayta ishlash texnologik tizimida neft shlamlarini hosil bo`lish manbaalarini aniqlash, neftli komponentlarni ajratishga mo`ljallangan qurilmalarning ishlash printsipini tahlil qilish asosida taklif etilayotgan markazdan qochma kuch maydonida neft shlamini ajratish usulini asoslash. Texnologik jarayonni axborot-kommunikatsiya tizimlari asosida avtomatik boshqarish sistemasini ishlab chiqish hamda boshqarish tizimida qo`llaniladigan datchiklar va kontrollerlarni tanlash orqali ta`sir etuvchi parametrlarni optimal boshqarishning dasturiy ta`minotini ishlab chiqish hisoblanadi.

Monografiya neftni qayta ishlash korxonalari texnologlari, doktorantlar, aspirantlar, magistrant va talabalar uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-7541-4-0

© Qobilov H.X., Saliyeva O. K.,
Mizomov M.S., Sharipova N.R. 2021
© БМТИ 2021

MUNDARIJA

Kirish 5

1.BOB. NEFT SHLAMLARINI FAZALARGA AJRATISH QURILMALARI VA USULLARI TAHLILI 7

1.1. Neft shlamlarini hosil bo`lish manbalari 7

1.2. Neft shlamini fazalarga ajratish qurilmalari 11

1.3. Neft shlamiga kimyoviy ishlov berish asosida ajratish usullari 15

1.4. Neft shlamlarini markazdan qochma kuch ta`sirida ajratishning matematik tavsifi 18

2-BOB. NEFT SHLAMINI QAYTA ISHLASH JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA TIZIMLI TAHLILI 23

2.1. Neft shlamini markazdan qochma kuch ta`sirida fazalarga ajratish jarayonini matematik modeli 23

2.2. Rostlash ob'yektining uzatish funktsiyasi ishlab chiqish 31

2.3. Ob'yektning o`tish xarakteristikasi 33

2.4. Neft shlamini markazdan qochma kuch ta`sirida ajratish jarayonini tizimli tahlili 38

III-BOB. NEFT SHLAMINI AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISHNING TEXNIK TA'MINOTI VA INSTRUMINTAL VOSITALARI 41

3.1. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil etish yo`llari 41

3.2. Neft shlamini ajratish jarayonini avtomatlashtirish 43

3.3. Kerakli nazorat o`lchov asboblari, ijrochi mexanizmlpr va mikrokontrollerni tanlash 54

3.4. Neft shlamini fazalarga ajratish jarayonini AKT asosida boshqarish va dasturiy ta`minoti 78

3.5. Texnologik jarayonini avtomatik boshqarishda operator interfeysini ishlab chiqish 91

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati 95

Ilova 102

SCAN AnyScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Qobilov H.X., Solieva O. K., Mizomov M.S., Sharipova N.R.

“MARKAZDAN QOCHMA KUCH MAYDONIDA NEFT SHLAMLARINI AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH”

MONOGRAFIYA

“DURDONA” NASHRIYOTI

BUXORO

2021

Qobilov H.X.

Markazdan qochma kuch maydonida neft shlamlarini ajratish jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish. Monografiya / Qobilov H.X., Solieva O. K., Mizomov M.S., Sharipova N.R.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ilmiy kengashida ko`rib chiqildi va chop ettirish uchun tavsiya etildi (2021 yil "_____" _____ -son majlis bayonnomasi).

Taqrizchilar:

S.B. Usmonov – Buxoro neft va gaz sanoati kasb-hunar kolleji direktori.

Q.Q. SHaripov – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, “Neft-gaz ishi” kafedrasi mudiri, dottsent

H.X. Qobilov., O. K. Solieva., M.S. Mizomov., N.R. Sharipova Markazdan qochma kuch maydonida neft shlamlarini ajratish jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish**.** Buxoro: Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. 2021. - 112 b

Bugungi kunda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun neft shlamlari chiqindilarni utillashtirishning samarali usullarini joriy etish jumladan, neft shlamlarini tozalash jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash orqali avtomatik boshqarish tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Neftni qayta ishlash texnologik tizimida neft shlamlarini hosil bo`lish manbaalarini aniqlash, neftli komponentlarni ajratishga mo`ljallangan qurilmalarning ishlash printsipini tahlil qilish asosida tklif etilayotgan markazdan qochma kuch maydonida neft shlamini ajratish usulini asoslash. Texnologik jarayonni axborot-kommunikatsiya tizimlari asosida avtomatik boshqarish sistemasini ishlab chiqish hamda boshqarish tizimida qo`llaniladigan datchiklar va kontrollerlarni tanlash orqali ta`sir etuvchi parametrlarni optimal boshqarishning dasturiy ta`minotini ishlab chiqish hisoblanadi.

Monografiya neftni qayta ishlash korxonalari texnologlari, doktorantlar, aspirantlar, magistrant va talabalar uchun mo‘ljallangan.

© Qobilov H.X., Solieva O. K.,
Mizomov M.S., Sharipova N.R. 2021
© БМТИ 2021

MUNDARIJA

Kirish 5

1.BOB. NEFT' SHLAMLARINI FAZALARGA AJRATISH QURILMALARI VA USULLARI TAXLILI 7

1.1. Neft shlamlarini hosil bo`lish manbalari..... 7

1.2. Neft shlamini fazalarga ajratish qurilmalari 11

1.3. Neft shlamiga kimyoviy ishlov berish asosida ajratish usullari.....15

1.4. Neft shlamlarini markazdan qochma kuch ta`sirida ajratishning matematik tavsifi……18

2-BOB. NEFT SHLAMINI QAYTA ISHLASH JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA TIZIMLI TAHLILI 23

2.1. Neft shlamini markazdan qochma kuch ta`sirida fazalarga ajratish jarayonini matematik modeli.....23

2.2. Rostlash ob`ektining uzatish funktsiyasi ishlab chiqish 31

2.3. Ob`ektning o`tish xarakteristikasi.....33

2.4. Neft' shlamini markazdan qochma kuch ta`sirida ajratish jarayonini tizimli tahlili.....38

III-BOB. NEFT SHLAMINI AJRATISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISHNING TEXNIK TA'MINOTI VA INSTRUMINTAL VOSITALARI……...41

3.1. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil etish yo`llari..... 41

3.2. Neft shlamini ajratish jarayonini avtomatlashtirish..... 43

3.3. Kerakli nazorat o`lchov asboblari, ijrochi mexanizmlpr va mikrokontrollerni tanlash..... 54

3.4. Neft shlamini fazalarga ajratish jarayonini AKT asosida boshqarish va dasturiy ta`minoti 78

3.5. Texnologik jarayonini avtomatik boshqarishda operator interfeysini ishlab chiqish.....91

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati..... 95

Ilova 102

Tayach so’z iboralar…….105

KIRISH

Neft va gazni qayta ishlash jarayoni davomida ikkilamchi maxsulotlar hosil bo`ladi. Jumladan, neftni qayta ishlash zavodida asosiy hosil bo`ladagan chiqindilardan biri, bu neft shlamlari hisoblanadi. Neftni transportirovkalash, saqlash, quduqlarni burg'ilash jarayonlari davomida shlamlar hosil bo`ladi. Birgina Buxoro neftni qayta ishlash zavodida yiliga 2 ming tonnagacha neft chiqindilari hosil bo`ladi. Hozirgi kunda bu chiqindilar katta xarajatlar hisobiga maxsus omborlarda saqlanadi yoki qurilish materiali sifatida foydaliniladi. Olib borilgan tahlilar shuni ko`rsatadiki, neft chiqindilarini qayta ishlashning yangi texnika va texnologiyalarini joriy etish orqali bir zavod miqyosida qo`shimcha 1000 tonnagacha neft maxsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyati tug'iladi. Bundan tashqari neft chiqindilarining atmosferaga, tuproq va er osti suvlariga salbiy ta`siri bartaraf qilinadi. SHuningdek, neft, gaz qazib olish havzalarida, burg'ulash quduqlarida, neft mahsulotlarini saqlash omborlarida ko`p miqdorda shunday chiqindilar hosil bo`lishini hisobga olsak, iqtisodiy samara yana bir necha marta oshadi [1].

Neft shlamlarini qayta ishlash hozirgi kunning asosiy muammosiga aylangan. Hozirgi kunda Buxoro neftni qayta ishlash zavodida texnologik jarayonlarni amalga oshirish mobaynida hosil bo`ladigan neft shlamlari qayta ishlanmasdan, bitum tarkibiga qo`shib yuborilmoqda. Neft shlamlarini qayta ishlash natijasida qo`shimcha to`yingan va to`yinmagan uglevodorodlar, parafinli uglevodorodlar, oltingugurt va boshqa neft mahsulotl arini olish imkoniyatlari mavjud. Buning natijasida katta iqtisodiy samara olish va atrof-muxit ekologiyasiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatish mumkin[2].

Xom neftning yo`qotilishini kamaytirishning istiqbolli yo`llaridan biri sanoat oqava suvlari tarkibidan uglevodorodlarni ajratib olish bo`lib hisoblanadi. Natijada katta miqdordagi uglevodorodlar ishlab chiqarishga qaytarilishi bilan birga texnik suvlar yo`qotilishi butunlay bartaraf qilinadi, chiqindilarning atrof muhitga zararli ta`siri xam bartaraf etiladi. Yirik neft konlarida neftni tayyorlash qurilmasi, rezervuarlarni tozalash, burg'ulash chiqindilari to`planadigan neft shlamlarini zararsizlantirish dolzarb muammo bo`lib kelmoqda[3].

Neft shlamlarini tozalashing adsorbtsion uslublari suvni zarur tozalik sifatini ta`minlash bilan birga sanoat oqova suvlaridan ko`plab qimmatli mahsulotlarni ajratib olish va bu bilan ishlab chiqarishda yo`qotishlarni kamaytirish imkonini beradi.

Tozalash darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadigan sorbtsion usullar sodda va ishonchli bo`lib, tegishli uskunalari uchun katta maydon talab qilmaydi.

Bugungi kunda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ushbu chiqindilarni utillashtirishning samarali usullarini joriy etish jumladan, neft shlamlarini tozalash jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash orqali avtomatik boshqarish tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Neft shlamlarini tozalashga qaratilgan masalalarni echish uchun birinchi navbatda dissertatsiya ishining maqsad va vazivalarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Neftni qayta ishlash texnologik tizimida neft shlamlarini hosil bo`lish manbaalarini aniqlash, neftli komponentlarni ajratishga mo`ljallangan qurilmalarning ishlash printsipini tahlil qilish asosida tklif etilayotgan markazdan qochma kuch maydonida neft shlamini ajratish usulini asoslash. Texnologik jarayonni axborot-kommunikatsiya tizimlari asosida avtomatik boshqarish sistemasini ishlab chiqish hamda boshqarish tizimida qo`llaniladigan datchiklar va kontrollerlarni tanlash orqali ta`sir etuvchi parametrlarni optimal boshqarishning dasturiy ta`minotini ishlab chiqish hisoblanadi.

1.BOB. NEFT’ SHLAMLARINI FAZALARGA AJRATISH QURILMALARI VA USULLARI BO`YICHA TAXLILI.

1.1.Neft shlamlarini hosil bo`lish manbalari

Neft shlamlari neftni qayta ishlash zavodlarida hamda turli texnologik jarayonlar davomida hosil bo`ladi. Jumladan, quduqlarni burg’ilashda, neftni tashish va saqlash jarayonida, neftni saqlash omborlarida hosil bo`ladi. Ma`lumki har bir texnologik jarayon davomida hosil bo`ladigan neft shlamlari atrof muhitga salbiy ta`sir ko`rsatadi. SHu nuqtai nazardan hosil bo`lgan neft shlamlarini ajratish va zararsizlantirish uchun bir necha usullar qo`llaniladi [5].

1. Termik usul – bunda neft shlami tarkibidagi uglevodorod gazlari termik ishlov berilib ajratib olinadi.
2. Kimyoviy usul - neft shlamiga turli xil erituvchilar ta`sir ettirilib, uglevodorod qismi ajratib olinadi.
3. Fizik kimyoviy usul. CHiqindilar tarkibiga erituvchi - deemul’gator lar qo`shilib, uglevodorod qismi mexanik usulda ajratib olinadi.
4. Biologik usul. mikrobiologik parchalash yo`li bilan zararsizlantiriladi.

Neftni saqlash omborlarida hosil bo`lgan neft shlamlarini zararsizlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- ombor yuzasida hosil bo`ladigan neft pardasini yig’ish;
- emul’tsiya holidagi neft tarkibidan suyuq fazani ajratish;
- ajratilgan neftni suvsizlantirish va tuzsizlantirish;

Sanoatni taraqqiyotiga, zavodga, fabrikaga, temiryo`l va suv transporti uchun yoqilgi, birinchi navbatda – ko`mir va neft kerak bo`ladi. Neft shlamlarini ajratish usullarini birinchilarda bo`lib 1967- yilda AQSH da edvin Dreyk tomonidan taklif etilgan. Taxminan shu vaqtda Rossiya davlatida ham neft shlamlarini ajratish ishlari boshlandi.

Birgina Buxoro neftni qayta ishlash zavodida yiliga 2 ming tonnagacha neft chiqindilari hosil bo`ladi. Hozirgi kunda bu chiqindilar kata xarajatlar hisobiga maxsus omborlarda saqlanadi yoki qayta ishlash orqali qurilish materiali sifatida

foydalaniladi. Tahlilar shuni ko`rsatadiki, neft chiqindilarini qayta ishlash orqali bir zavod miqyosida qo`shimcha 1000 tonnagacha rangli neft mahsulotlarini ishlab chiqarish mumkin. Bundan kutiladigan iqtisodiy samarani 2014 yil narxlarida yiliga 700 mln so`mni tashkil etadi [6].

Neft shlamlari tarkibiga tuzlar, qattiq uglevodorodlar va qattiq mexanik moddalar mavjud bo`lib, ularning hosil bo`lish manbaalari davlatlar miqiyosida o`rganildi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Aralashma tarkibi	Rossiya	Hosil bo`lish manbaalari			IZOH
		Uzbekiston	AKSH	YAponiya	
%	NPS 4	NPS 3	NPS 1	NPS 2	
Suv	0,27	1,8	12,8	1,5	
Qaynash temperaturasi 350^0S bo`lgan fraktsiya	8,0	12,0	84,5	5,85	
Asfal'-tenlar	7,97	9,38	6,61	8,9	
Minerallar	0,09	0,99	39,7	6,5	
Oltingugurt	2,45	2,82	1,38	4,29	

Neft shlamlarini fazalarga ajratish markazdan qochma kuch yordamida, shlam tarkibiga qo`shimchalar qo`shish asosida ajratish samaradorligini oshirishga mo`ljallangan dekanter yordamida hamda cho`ktirish qurilmalari yordamida amalga oshiriladi. Neft chiqindilari tarkibi va xossalari, shuningdek ularni utillash usullarin ishlab chiqish bo`yicha dunyodagi ko`plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Neft chiqindisi tarkibidan organik qismini ajratish ekstraktsion va termik usullarda amalga oshirilgan. Ajratilgan neftning guruhli tarkibi adsorbtsion xromotografiya usulida tahlil qilingan. Namunalar fizik kimyoviy xarakteristikalari va komponent tarkibi jadvalda keltirilgan.

Neft chiqindilari fizik kimyoviy xarakteristikalari va
komponent tarkibi

1.2-jadval.

Ko`rsatkichlar	**Neft chiqindilari**	
	Neft chiqindisi	**Neftli tuproq**
Zichlik, kg/m^3	1260	1665
Komponent tarkib, mas. %: Organik qismi Suv Mineral qismi	 81,8 10,2 8,0	 23,6 1,2 75,2
Qotish temperaturasi, ºS	+40	+36

Ajratilgan neft tarkibida parafin-naften komponentlari (40,84%), aromatichk uglevodorodlar (26,08%) mavjud. Neft chiqindisi tarkibida 12,76% asfal'tenlar mavjud. SHunday qilib, neft chiqindisidan spirt-benzol bilan ekstraktsiyalab ajratilgan neft oddiy neftlardan yuqori darajadagi parafinlar, asfal'to-mumli moddalar miqdori bilan farqlanadi.

Bunday moddalar miqdorining ko`pligi ularni qayta ishlashni qiyinlashtarida. Neftli tuproqdan ajratilgan organik qism tarkibida parafinnaftenlar miqdori (6,49%) va aromatik moylar miqdori (28,12%) nitashkil etadi. Neft chiqindisidan ajratilgan neftga nisbatan mumlar miqdori yuqori: petrol-benzol - 35,8%, spirt-benzol – 14,57%, benzol–3,09% ni tashkil etadi.

Asfal'tenlar miqdori 11,91%ni tashkil etadi. Tuproqli chiqindi uglevodorodli fraktsiya yuqori mumli neftlarga yaqin turadi. Qozoq olimlari tadqiqotlari qo`rsatishicha organik qismi ajratilgan qattiq qoldiq asfal'tobeton komponenti sifatida foydalanishi mumkin

ekan. 15-20 mas. % uglevodorodi bo`lgan sovuq holdagi qattiq qoldiq tabiiy 30 % qum bilan aralashtirilib asfal’t komponenti sifatida ishlatiladi. Aralashmaga (4-5% mass.) miqdorda BND 90/130 issiq bitum qo`shilib, 15 minut davomida bir jinsli suyuq massa hosil bo`lguncha aralashtiriladi.

Asfal’tbeton aralashmasi fizik-kimyoviy xossalari

1.3-jadval.

Fizik-mexanik xossalari	**Smes`**		**GOST 9128-84**
	1	**2**	
Solishtirma og’irlik, g/sm^3	2,18	2,2	**-**
Suv bilan to`yinganligi, o%	5,4	5,0	5,0 – 9,0
SHishishi, ob%	0,6	0,4	2,0 ortiq emas
Siqilishda mustahkamlik chegarasi, 20º S, kgs/sm^2	12,2	12,4	12 ortiq emas
Suvga turg’unlik koeffitsienti	0,62	0,63	0,6 ortiq emas

1.2. Neft shlamini fazalarga ajratish qurilmalari

Neft shlamini qayta ishlash orqali, turli xil qaynash temperaturasiga ega fraktsiyalarni olish texnologiyalari mexanik, issiqlik hamda moddaalmashinuv jarayonlaridan tashkil topgan. Jumladan, neft shlamini quritish, piroliz va boshqa yuqori haroratli jarayonlar va ularning kombinatsiayalari bo`lgan termik jarayonlar bugungi kunda neft shlamini to`la ajratish uchun o`z samarasini bermayapti [7].

Taklif etilayotgan tadqiqot ishida neft shlamini markazdan qochma kuch ta’sirida fazalarga ajratish masalasi qo`yilgan. Markazdan qochma kuch ta`sirida neft shlami ikkita fazaga, ya`ni suyuq va qattiq fazaga. Neftni qayta ishlash texnologik tizimida neft shlamini ajratish uchun turli xil konstruktsiyaga ega bo`lgan uskunalar qo`llaniladi. Bizga ma`lumki, neft shlami turli jinsli sistemalar qatoriga kuradi. SHu nuqtai nazardan, turli jinsli sistemalarni ajratish usullaridan biri bu tsentrafugalash xisoblanadi. TSentrofugalarda markazdan qochma kuch maydonida cho`ktirish va fil’trlash jarayonlari amalga oshiriladi. SHuning uchun tsentrofugalar cho`ktirgich va fil’trlarga nisbatan samarali qurilmalar bo`lib hisoblanadi. Ishlash printsipiga ko`ra tsentrofugalar cho`ktiruvchi va fil’trlovchi turlarga bo`linadi. CHo`ktiruvchi tsentrifugalar tarkibida 40 % gacha qattiq faza tutgan va zarrachaning o`lchami 5 dan 100 *mkm* gacha bo`lgan aralashmalarni ajratish uchun ishlatiladi. TSentrifuganing barabani yaxlit bo`lib, qobiq ichiga joylashtirilgan. Turli jinsli sistema barabanga truba orqali beriladi. Barabanning aylanishida hosil bo`lgan markazdan qochma kuch ta`sirida zichligi kattaroq bo`lgan komponent barabanning devori yaqinidagi hajmni egallaydi, zichligi kichiqroq bo`lgan komponent esa aylanish o`qiga yaqinroq qismda yig’iladi. Tindirilgan suyuqlik (fugat) tegishli patrubka orqali qurilmadan chiqariladi. CHo`kma qatlami amaliy jixatdan barabanni to`ldirgandan so`ng, qurilma to`xtatiladi. Konus yuqoriga ko`tarilib, cho`kma tushiriladi. Bunday holda tsentrifuganing ish faoliyati davriy hisoblanadi [8,9,10]. Ish rejimiga ko`ra fil’trlovchi tsentrifugalar davriy va uzluksiz bo`ladi. Baraban valining o`rnatilish holatiga qarab gorizontal va vertikal fil’trlovchi tsentrifugalarga bo`linadi. Fil’trlovchi tsentrifugalarda cho`kma qo`l kuchi yordamida hamda gravitatsion, pul’satsion, markazdan qochma kuchlar ta`sirida tushiriladi (1.1-rasm).



1.1- rasm. CHo`ktiruvchi tsentrifuganing sxematik ko`rinishi

1 - suspenziyaning berilishi; 2- cho`kma tushiriladigan teshik; 3- qobiq;

4- baraban; 5-fugat chiqariladigan patrubka; 6- konus; 7- zichligi katta bo`lgan komponent (cho`kma); 8- zichligi kichiq bo`lgan komponent (fugat).

CHo`ktiruvchi tsentrifugalardan fil'trlovchi tsentrifugalarning asosiy farqi shundaki, ular g'alvirsimon to`rli metalldan tayyorlangan barabangaega bo`lib, uning yuzasiga fil'trlovchi gazlama (mato) qoplangan.



1.2 - rasm. Fil'trlovchi tsentrifuga

1-suspenziyaning berilishi; 2- cho`kma tushiriladigan teshik; 3- qobiq;

4- baraban; 5- fugatning chiqarilishi; 6- korpus; 7- fil’trlovchi material;
8- cho`kma; 9- suspenziya.

Davriy ishlaydigan fil’trlovchi tsentrifugada neft shlami barabanning yuqorisidan beriladi. Neft shlami berilgandan so`ng baraban aylanma harakatga keltiriladi. Markazdan qochma kuchlar ta’sirida neft shlamining butun massasi baraban devoriga tomon uloqtiriladi. SHlam tarkibida mavjud bo`lgan suyuq faza fil’trlovchi to`siq orqali o`tadi, cho`kma esa unda ushlanib qolinadi. Fil’trat patrubka orqali yig’gichga uzatiladi. Fil’trlash davri tugagandan so`ng cho`kma qo`l kuchi yordamida qopqoq orqali tushiriladi. O`zi tushiruvchi tsentrifugalarda cho`kma gravitatsion kuchlar ta`sirida apparatdan chiqarib yuboriladi. Bunday tsentrifugalar vertikal valli qilib tayyorlanadi va ularda g’alvirsimon baraban joylashtiriladi. Suspenziya barabanga disk orqali beriladi. Barabanning pastki qismi konussimon shaklga ega. Fil’trlash davri tugagach baraban to`xtaydi, cho`kma gravitatsion kuchlar ta`sirida tushiriladi [12,14].

Fil’trlovchi tsentrofugalar tarkibida 100 mkm dan yuqori bo`lgan kattiq zarrachalarni ushlagan suspenziya va neft shlamlarini ajratish uchun qo`llaniladi. CHo`ktiruvchi tsentrofugalar esa qiyin fil’trlanadigan suspenziyalar, jumladan, yirik o`lchamli suspentsiyalarni ajratishda qo`llaniladi. Bu tsentrofugalar o`z navbatida cho`ktiruvchi, tindiruvchi, va ajratuvchi turlarga bo`linadi.

TSentrofugalarni tanlashda asosiy omil, qattiq faza disperslik darajasi, samarali zichlik, ya`ni qattiq va suyuq fazalar zichliklari orasidagi farq, ularning kontsentratsiyasidir. emul’tsiyalar uchun emul’tsiya turg’unligi, suyuq faza qovushqoqligi va fazalar zichliklari nisbati bo`lib hisoblanadi. TSentrofugalarni tanlashda shuningdek, materialning korrozion xususiyatlarini, zaharliligini, yong’in va portlash xossalarini hisobga olish lozim. Suspenziya tarkibida mayin qattiq zarralar miqdori qanchalik ko`p bo`lsa, fugat tarkibida ham ular miqdori shunchalik ko`p bo`ladi [15].

TSentrofugalar faoliyatiga suyuq faza qovushqoqligi sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Bu kattalikning ortishi bilan tsentrofuga ish unumdorligi keskin pasayadi. SHuning uchun ko`p hollarda qovushqoqlikni kamaytirish uchun emul’tsiya va suspenziya

isitiladi. emul’tsiyani isitish nafaqat qovushqoqlikni kamaytirish, balki ish unumdorlikni ortishiga olib keladi. Suspenziya va emul’tsiyalarni ajratishda gijrotsiklonlar ham keng qo`llaniladi. Gidrotsiklonlar odatda tarkibidagi zarrachalarning o`lchami 5-150 *mkm* bo`lgan suspenziyalarni fazalarga ajratish uchun ishlatiladi. Bunday qurilmalardan beqaror emul’siyalarni ajratish uchun ham foydalanish mumkin. Gidrotsiklon qobig’i tsilindrsimon va konussimon qismlardan iborat. Gidrotsiklonlarda ajratish sifati konuslilik burchagiga bog’liq bo`ladi [16,17].

Suspenziya gidrotsiklonga tangentsial yo`nalishda 5-20 *m/s* tezlikda kiradi. Suspenziya qurilmaning tsilindrsimon yuzasi yaqinida pastga karab spiralsimon harakat qiladi. Suyuqlik oqimi bilan birgalikda qattiq zarrachalar ham pastga qarab harakat qiladi. Bunda suyuqlik tarkibidagi qattiq zarrachalar markazdan qochma kuch ta`sirida qurilmaning konussimon yuzasi tomon uloqtiriladi. Engil komponet esa gidrotsiklon markaziga yig’iladi va markaziy patrubka orqali yuqoriga harakatlanib, qurilmadan aloxida chiqariladi. Og’ir komponent esa pastgi shtutser orqali qurilmada tashqariga chiqariladi(1.3- rasm).



1.3 - rasm. Gidrotsiklon

1 - tangentsial patrubka; 2- markaziy patrubka; 3 - to`siq; 4-korpusning tsilindrsimon qismi; 5-korpusning konussimon qismi; 6- ajralgan og'ir faza (shlam) chiqariladigan patrubka.

Qattiq fazaning zichligi qanchalik katta bo`lsa, cho`ktiruvchi tsentrofuga ish unumdorligi shunchalik yuqori bo`ladi. emul'tsiyani ajratishda komponentlar zichliklari farqi ortishi bilan, tsentrofuga ish unumdorligi ortib boradi.

1.3. Neft shlamiga kimyoviy ishlov berish asosida ajratish usullari

Neft shlamlarini ajratish jarayonini jadallashtirish, qo`llaniladigan uskunalarning ajratish samaradorligini oshirish maqsadida neft shlami tarkibiga kimyoviy moddalar qo`shiladi. Neft shlamini fazalar bo`yicha to`liq ajralish darajasi gidromodulga bog'liq. SHu nuqtai nazardan neft shlami tarkibida mavjud' bo`lgan komponentlar miqdori, xar bir komponentning ikkinchi biriga nisbatan ulushi hisobidan gidromodul tanlanadi. Gidromodulning optimal nisbatini eksperimentlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq [18].

Neft shlami tarkibiga qo`shiladigan reagentlarga to`xtaladigan bo`lsak, reagentlar kimyoviy faol moddalar bo`lib, neftni juda mayin qattiq zarralardan ajratish imkonini beradi. Reagentlarni qo`llash natijasida ajratish jarayoni tezlashadi. Reagentlar kompozitsiyasi murakkab neft shlamlarini ajratish uchun tanlangan yuqori sifatli sanoat polimer flokulyantlar, yuvuvchi komponentlar, deemul'sifikatorlar va boshqa faol moddalardan iborat. Bunday kompozitsiya qattiq zarralarning koagullashtirish va suv-neft emul'tsiyasini buzishga imkon beradi [19].

Reagentlar sarfi unchalik katta emas, shlam tarkibiga ko`ra 300 dan 1000 g/$m^3$ gacha bo`lishi mumkin. CHo`ktirish hovuzlari shlamlari uchun reagent sarfi taxminan 800 g/$m^3$ ga teng. Kimyoviy reagentlar sarfi maxsus nasos dozatorlar yordamida belgilanadi. Kimyoviy ishlov berish bo`limi nasos dozator, maxsus kompakt aralashtirgichlar, reagentlar eritmasini tayyorlash uchun aralashtirgichli idishlar va reagentlarni saqlash uchun maxsus saqlash idishlaridan iborat.



1.4-rasm. Kimyoviy ishlov berish bo`limi

Fazalarni ajralishini masimal samaradorligini ta`minlash uchun shlamga koagulyant, deemul’gator va flokulyant qo`shiladi.

Neft shlamlarini ajratish uchun mo`ljallangan sanoat korxonalarida maxsus uskunalar (1.4-rasm) mavjud bo`lib, ularda ma`lum vaqt davomida neft shlamiga reagentlar yordamida ishlov beriladi. Ishlov berish davomida kattiq zarrachalarning koagulyatsiyasi sodir bo`lib, ularning cho`kish tezligi oshadi.

Hozirgi kunda Germaniya, Saudiya Arabistoni, Frantsiya va YAponiya mamlakatlarida neft shlamlarini ajratishning uch fazali sistemasi qo`llanilib kelinmoqda [20,21,23].

Uch fazali tsentrofugalash – markazdan qochma kuch maydonida neft shlamidan neft, suv va qattiq fazalarni ajratish imkoniyatini yaratadi. Taklif qilinayotgan jihoz yordamida neft rezervuarlari, neft separatorlari, cho`ktiruvchi hovuzlar cho`kma shlamlarini utillash mumkin. Jihozning asosiy muhim xususiyatlaridan biri, tarkibida turli nisbatlarda suv, neft va qattiq faza bo`lgan shlamlari qayta ishlash mumkin. Uch fazali tsentrafugalash asosida olingan xom-ashyolarning ko`rinishi va turi 1.5-rasmda keltirilgan.



1.5-rasm. Uch fazali tsentrofuga mahsulotlari

Uch fazali tsentrofuga (1.6-rasm) markazdan qochma kuch maydonida neft shlami tarkibidan suv, neft va qattiq fazalarni alohida ajratish imkonini beradi [25].



1.6-rasm. Uch fazali tsentrifuga

Uch fazali tsentrafugada qattiq faza neft shlamidan ichki konveyer yordamida, neft fraktsiyasi va suv esa separatsiya zonasiga siljib, impeller va patrubkalar yordamida chiqarib olinadi.

SHlam tarkibidagi neft va suv nisbatlari o`zgarganda, berilayotgan xom-ashyo kontsentratsiyasi bo`yicha tsentrofuga to`xtamasdan keyingi rostlanish bo`yicha o`z funktsiyasini bajarish imkoniyatiga ega. Ishchi organning aylanishlar soni 3600 ayl/min bo`lib, juda kichik zarralarni ajratish imkonini beradi. Ikki yoqlama vint suyuq fazani ishchi zonada uzoqroq bo`lishini ta`minlab, sifatli neft fraktsiyasini ajratish imkonini beradi. TSentrofuganing ishchi zonasida tezlatkich bo`lib, shlamning harakat tezligini oshiradi. Bu esa ajratish koeffitsientini oshishiga olib keladi. Ammo shuni ham ta`kidlash kerakki, tsentrofugaga beriladigan shlam tarkibi o`zgarishi bilan fazalar nisbati katta diapazonda o`zgarishi mumkin. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun tsentrofugada aylanishlar sonini o`zgartiradigan gidravlik uzatmadan foydalaniladi [26,27,28].

1.4. Neft shlamlarini ajratish jarayoniga erituvchi va deemul’gatorlar ta`sirini tadqiq qilish.

Ma`lumki, og’ir yuqori qovushqoqli neft chiqindilari emul’tsiyasi turg’unligini kamaytirishning bir muncha samarali va qulay usuli, erituvchi rolini bajaradigan past qovushqoqli neft qo`shib suyultirishdir. Suyuqlik qo`shish tashqi faza qovushqoqligini pasaytiradi va kinetik turg’unligiining yo`qotilishiga olib keladi.

Bu usul quyuq, amaliy jihatdan oqmaydigan neft shlamlarining pastki qatlamlarini qayta ishlashda qo`llansa bo`ladi. Texnologik jarayonni optimal tashkil qilish rejimini aniqlash maqsadida bir qator laboratoriya tajribalari o`tkazildi. Tadqiqotlar o`tkazish metodikasi quyidagicha. Neft shlami namunalarida yuqori temperaturalarda termokimyoviy ishlov berish yo`li bilan tajribalar o`tkazildi. Bir vaqtning o`zida og’irlik va markazdan qochma kuch maydonida ajratish bosqichlari samaradorligi ham tadqiq qilindi. Reagent va chuchuk suv qo`shish nuqtalari va miqdorini aniqlash bo`yicha ham tajribalar o`tkazildi.

Tajribalar o`tkazish tartibi

1. Mos GOSTlarga asoslanib, neft shlamlari fizik kimyoviy va reologik xossalari aniqlandi.

2. Neft shlamini yuqori temperatura (80 °S) da ishlov berish sharoitlari o`rganildi. Ajratish jarayoni ikki bosqichli markazdan qochma ajratishni qo`llab, ikkinchi bosqich tsentrofugalashdan oldin reagent va 10 % miqdorda chuchuk suv qo`shib tadqiq qilindi.

Ma`lumki, neft shlamlari va og'ir, yuqori qovushqoqli neftlar emul'tsiyasining barqarorligini pasaytirishning samarali usullaridan biri kam qovushqoqli neft bilan aralashtirish bo`lib hisoblanadi. Suyuq neft erituvchi vazifasini bajarib, emul'tsiya tashqi fazasi qovushqoqligini kamaytiradi va uning kinetik turg'unligini yo`qotadi. Neft shlamlar quyuq, deyarli oqmaydigan massa bo`lganligi uchun shu usuldan foydalansa bo`ladi.

Neft shlamlari yuqori temperaturada (80 °S) reagentlar ishtirokida ikki bosqichli markazdan qochma ajratkichlar yordamida amalga oshirildi. SHlamga 10 % chuchuk suv qo`shilib dastlab gidrotsiklon, so`ngra tsentrofugada ajratiladi. Turli idishlardan olingan neft shlamlari 100 ml. li kolbaga solinib 30-40 minut davomida 50°S gacha qizdiriladi. 10 minut davomida aralashtiriladi. O`rta namuna 80 ml. dan darajalangan shisha cho`ktirgichlarga asolinadi.

№ 1 raqamli- cho`ktirgichga Dissol'van U2892, № 2 raqamli cho`ktirgichga - Daufaks BB 63 № 40, № 3- raqamli cho`ktirgichga Akvanoks 3490 turidagi 1000 g/t miqdorda deemul'gatorlar qo`shiladi.
46 So`ngra namunalar 1 minut davomida aralashtirilib, tsentrifuga probirkalariga solinadi. 3000 ayl/min tezlikda 20 minut davomida tsentrifugalanadi. Natijada probirkalarda neft, cho`kma, suv qatlamlari hosil bo`ladi.

Suv va neft ehtiyotkorlik bilan mos ajratish voronkalariga quyiladi. Voronka 10-15 minut davomida 80°S temperaturali suv hammomida ushlanib, ostki qismidagi ajralgan suv chiqarib olinadi.
Har bir ajratish voronkalarida qolgan neftga 10 % miqdorda 80 °S temperaturali issiq chuchuk suv quyiladi va 3 minut davomida aralashtiriladi. So`ngra aralashmala yana tsentrifuganing toza probirkalariga quyilib,

3000 ayl/min tezlikda 20 minut davomida tsentrifugalanadi. Neft va suv ajratish voronkalariga quyiladi va ajralgan suv chiqarib olinadi. Qolgan neftdagi suv miqdori Din-Stark apparati yordamida, tuz va mexanik qo`shimchalar miqdori aniqlanadi. Buning uchun ajratish voronkasida qolgan neft 80°S li suv hammomida qizdirilib, 10 minut davomida jadal aralashtiriladi. Texnik tarozida kerakli miqdordagi namuna tortib olinadi.

Neft tarkibidagi suv miqdorini o`lchash usulining mohiyati shundan iboratki, suv va erituvchini neft mahsulotlari tarkibidan haydash va so`ngra idishda ikki qatlamga ajratishdan iborat. erituvchi sifatida BR – 1 benzin erituvchi ishlatiladi. Ishlatishdan oldin benzin SaSl bilan suvsizlantiriladi va filtrlanadi.

Tajriba kurilmasi (2.1-rasm) kolba 1, idish yig'gich- ajratgich 2 va sovutgich 3 dan iborat. Yig'gich idish pastki qismi konussimon bo`lgan 10 ml.li darajalangan probirka bo`lib, 1 –10ml. qismida darajalash qiymati 0,2 ml, 0-1 ml. qismida 0, 05ml.ga teng. Probirkaning yuqori qismiga trubka ulangan bo`lib, uning 2 – uchi haydash kolbasi 1 ga ulanadi. Kolba shisha yoki metalldan bo`lishi mumkin.

Aniqlash usuli.

Tekshiriladigan sinov namunasi 5 min. davomida aralashtiriladi, parafinli mahsulotlar dastlab 40 0Sga qizdiriladi. Kolba 1 ga 0,1g aniqlikda o`lchangan 100 g mahsulot va 100 ml erituvchi quyilib aralashtiriladi. Bir tekis qaynashi uchun kolbaga bir nechta shisha kapillyarlar joylashtiriladi.

Qurilma yig'ilib, shtativga qotirilgach, sovutgichga suv quyilib, kolba elektroplitka yoki gaz gorelkasi bilan extiyot bo`lib qizdiriladi. Isitish shunday tashqil qilinadiki, sovutgichdan yig'gich idishga 1 sek.da 2 – 4 tomchi kondensat tushsin. Sovutgichga ko`p suv quyilmasligi lozim. CHunki bunda trubka ichida havo tarkibidagi namlik kondensatsiyalanishi mumkin. Ma`lum vaqtdan sung yig'gich idish suyuqlik bilan to`lib, ortiqchasi kolbaga qaytib tusha boshlaydi. Agar tekshiralayotgan mahsulot tarkibida suv bo`lsa, kolbada bug'lanib, sovutgichda kondensatsiyalanib,

erituvchi bilan birga yig’gichga tushadi va zichliklar farqi hisobiga qatlamga ajraladi.

Haydash standart tezlikda olib borilsa, suv kolbaga qaytib tushmaydi. Yig’gichda suv miqdori o`zgarmay qolgach va erituvchining yuqori qatlami shaffoflashgach, haydash to`xtatiladi. Agar kam miqdordan suv haydalsa, erituvchi tez tinimaydi. Bunday holda yig’gich idish 20 min. davomida issiq suvda tiniguncha ushlab turiladi. Yig’gich shisha devoriga yopishgan suv tomchilari yupqa shisha tayoqcha bilan pastga suriladi.

So`ngra haydalgan suv miqdori o`lchanadi. Agar neft yoki neft mahsulotining suvlanganlik darajasi 10 % ortiq bo`lsa, 100 g namunadagi suv yig’gichga sig’maydi. Bu holda dastlab mahsulot miqdori 50, 25yoki10g. gacha kamaytiriladi. Suvning % lardagi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$X=\frac{V}{G} \qquad (2.1)$$

Tajriba natijalari tahlili

Deemul’gator	**Dozirovka, g/tn**	**Suv, %**	**Tuzlar, mg/l**	**Mexanik qo`shimchalar, %**
Disol’van U2892	1000	8.3	Aniqlanma.	0.7
BB 63 № 40	1000	6.0	Aniqlanma	0.6
Akvavnoks3490	1000	5.0	Aniqlanma	0.

1.3-jadval. Tajriba natijalari

Neft shlamiga turli nisbatlarda (1:1,1:2,1:3,1:5,1:10) tovar neft qushilib tajribalar o`tkazildi. Olingan aralashmalar fizik-kimyoviy xossalari va reologik xusuiyatlari tadqiq qilindi. Tadqiqotlar ko`rsatishicha, neft shlami va tovar neftni 1:5 nisbatatdan kamroq qo`shilganda, GOST ga muvofiq holda 2-guruh sifatli neft olindi. Ammo bunday holda iqtisodiy nuqtai nazardan, tovar neft miqdori juda ko`p.

So`ngra, tadqiqotlar tovar neft miqdorini kamaytirishga yo`naltirildi. Neft shlami va tovar neftning 1:3 nisbatdagi aralashmasiga reagentlar- inkredol (3000 g/tn), OB 63 №40 (1200 g/tn), BR 513 (1200 g/tn) qo`shib va bir pog'onali tsentrifugalashdan foydalanildi.

Neft shlami va tovar neftning 1:3 nisbatdagi aralashmasi 50°S ga isitildi. Aralashma 1000 ml hajmli shisha kolbalardagi aralashma suv 50 hammomlarida 30 minut davomida 50°S gacha isitildi. Aralashtirish qo`lda silkitib amalga oshirildi. So`ngra har bir komponentning kerakli miqdori o`lchanib, 1000 ml. li toza shisha kolbaga solindi. Kolba tiqin bilan yopilib, 10 minut davomida qo`lda aralashtirildi. So`ngra qoridagi tartibda operatsiyalar takrorlanib, natijalar olindi.

2-BOB. NEFT SHLAMINI QAYTA ISHLASH JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA TIZIMLI TAHLILI.

2.1. Neft shlamini markazdan qochma kuch ta`sirida fazalarga ajratish jarayonini matematik modeli.

Dissertatsiya ishida tadqiq qilinayotgan ob`ekt neft shlami hisoblanib, neft shlami tarkibi uni ajratish usullari oldingi bo`limda o`rganib chiqildi. Tahlilar shuni ko`rsatadiki iqtisodiy jihatdan arzon, texnik jihatdan samarali bo`lgan ajratish usuli, bu markazdan qochma kuch ta`sirida shlam tarkibida mavjud bo`lgan fraktsiyalarni ajratishdir. SHu nuqtai nazardan oqimlar strukturasi paralel va qarama-qarshi yo`nalgan sistemada ishlovchi gidrotsiklondan tashkil topgan texnologik tizimni AKT asosida boshqarish strukturasini ishlab chiqish asosiy vazifa qilib olingan.Texnologik tizimning asosiy elementi hisoblangan gidrotsiklonni muxandislik hisobi va jarayonning matematik modeli ishlab chiqildi [32].

Taklif etilayotgan texnologik tizim orqali neft shlamlarini ajaratish jarayonida, oqimlarning harakati parallel va qarama yo`nalishda tashkil etilgan. Tarkibida o`ta mayin qattiq zarracha sistemasi bo`lgan neft shlamlarini uchta fazaga ajratish juda qiyin. CHunki o`ta mayin zarrachalarning suyuq faza bilan birga chiqib ketishi ehtimoldan holi emas. SHuning uchun ushbu dissertatsiya ishida, tarkibida o`ta mayin zarrachani tutgan neft shlamini faqatgina 2 ta fazaga ajratishning matematik modellashtirish masalalari hal etilgan.

Suyuq va qattiq fazali jismlar sistemasida gidrodinamik oqimlar strukturasi

Suyuq+qattiq fazasi sistemalarning gidrodinamik strukturaviy oqimini ideal aralashish modeli sifatida qaraymiz. Gidrotsiklonga kirayotgan neft shlamining intensiv aralashishi natijasida suyuq sistemaning kontsetratsiyasi vaqt birligida o`zgarib boradi. Suyuq sistemani tarkibida mavjud bo`lgan qattiq zarrachalar miqdori bo`yicha kontsentratsiya o`zgarishini tahlil qiladigan bo`lsak, qattiq jismga nisbatan olingan kontsentratsiya, vaqt birligida kamayib boradi. Ushbu qonuniyatni ifodalash uchun kiruvchi va chiquvchi parametrlarni quyidagicha qabul qilamiz. Neft shlami tarkibida mavjud bo`lgan va qattiq zarrachalar bilan birgalikda apparatdan

chiqib ketgan suyuq modda miqdorini a_m, aralashma a_c, suyuq faza $a_ж$ hamda temperatura $t_ж$ o`zgarishini quyidagi differentsial tenglama orqali ifodalaymiz [9].

$$\frac{\partial a}{\partial \tau} = \frac{1}{\tau_{ср}}\left(a_m^{вх} - a_m^{вых}\right), \qquad (1.1)$$

bu erda $\tau_{ср}$ - qattiq fazaning ishchi kamerada o`rtacha bo`llish vaqti, s;

$a_m^{вх}$, $a_m^{вых}$ - qattiq faza tarkibida mavjud bo`lgan suyuq faza kontsentratsiyasi, %;

Kattiq fazaning ishchi kamerada o`rtacha bo`lish vaqti quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\tau_{ср} = \frac{m_c}{G_c + G_ж} \qquad (1.2)$$

bu erda m_c - ishchi kameradagi aralashma miqdori. O`z novbatida ushbu kattalik quyidagiga teng:

$$m_c = V_c \rho_c \qquad (1.3)$$

bu erda: V_c - ishchi kameradagi aralashma hajmi:

ρ_c - aralashma zichligi.

U xolda (1.2) tenglama quyidagiga teng bo`ladi:

$$\tau_{ср} = \frac{V_c \rho_c}{G_c + G_ж} \ . \qquad (1.4)$$

$$\tau_{o`r} = \frac{V_{n.sh} \cdot \rho_{n.sh}}{G_{n.sh} + G_n} \qquad (1.5)$$

bu erda:

G_n – chiqaetgan toza neft sarfi,

$m_{n.sh}$ – apparatdagi neft shlami miqdori , kg

$G_{n.sh}$– apparatga kiraetgan neft shlami massalari arfi, kg/s

G_n – chiqaetgan toza neft sarfi,

Neft chiqindilarini ajratish zavod qurilmasi asosiy jihozi gidrotsiklon bo`lganligi uchun, quyida gidrotsiklonni muhandislik hisoblash

metodikasi ishlab chiqildi. Gidrotsiklonda suyuq va gaz fazalarni mexanik ajratish jarayoni amalga oshiriladi.

Gidrotsiklonni hisoblashning maqsadi uning geometrik o`lchamlarini va quvvatini, shuningdek, ajratiladigan zarralar o`lchamini aniqlashdan iborat.

Hisoblashni amalga oshirish uchun boshlang'ich ma`lumotlar: qurilma ish unumdorligi, nasos napori, neft chiqindisining komponent tarkibi bo`lib hisoblanadi.

Diskret va paralel yo`nalishda neft shlamlarini ajratishga mo`ljallangan qurilmada, shlamning intensiv aralashishi natijasida ikkita faza hosil bulishini ifodalovchi matematik modelni ishlab chiqish uchun avallo berilayotgan va ajralib chiqayotgan xom ashyo va tayyor maxsulot kontsentratsiyalari farqini ifodalashning matematik tenglamasini ishlab chiqish zarur [31].

Gidrotsiklonda suyuq va gaz fazalarni mexanik ajratish jarayoni amalga oshiriladi. Gidrotsiklonni hisoblashning maqsadi uning geometrik o`lchamlarini va quvvatini, shuningdek, ajratiladigan zarralar o`lchamini aniqlashdan iborat. Hisoblashni amalga oshirish uchun boshlang'ich ma`lumotlar: qurilma ish unumdorligi, nasos napori, neft chiqindisining komponent tarkibi bo`lib hisoblanadi.

Kirish patrubkasi diametri d_k ,tsiklondagi bosimlar farqi Δp bo`lganda quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{cek} = \mu_0 \frac{\pi d_{kir}^2}{4} \sqrt{\frac{2\Delta R}{\rho_s}} \qquad (2.1)$$

bu erda : μo – sarf koeffitsienti. V_{cek} – qurilmaning suspenziya bo`yicha ish unumdorligi, m^3/s; ρ_s-suspenzii zichligi.

Tenglamaning o`ng tomoniga tsiklon diametri *D* va pachtki patrubka diametri d ni kiritib quyidagiga ega bo`lamiz.

$$K = \frac{C_0}{\sqrt{\rho}} = C_0(Dd_0) \sqrt{\frac{\Delta P}{\rho_c}} \qquad (2.2)$$

(2.2) tenglamaga koeffitsient qiymatini kiritib,

Suspenziya sarfini aniqlash uchun tenglamaga ega bo`lamiz:

$$V_0 = KDd_x \sqrt{\Delta P} \qquad (2.3)$$

Tajriba natijalariga asoslanib,K=0,5 ga teng deb olamiz.

Suspenziya oqimining gidrotsiklondagi tezligini tashkil etuvchilarga ajratish mumkin (muhit tezligi ω, radial' ν_r va bo`ylama $\nu_z$ )Bu tezliklar qiymatlari apparatdagi bosim *p*, gidrotsiklon o`rtasidan bo`lgan masofa *r* va balandlik z ning funktsiyasi bo`lib hisoblanadi.

$$\omega\,,\nu_r\,,\nu_z = \int_{(P,r,z)} \qquad (2.4)$$

Zarralarning gidrotsiklondagi harakati arximed kuchlarini hisobga olib ifodalanadi:

$$G_A = \frac{m_j\,\omega^2}{2} \qquad (2.5)$$

Markazdan qochma kuch maydonida cho`ktirishda og'irlik va arximed kuchlarini hisobga olmasa ham bo`ladi. CHo`kish vaqtini aniqlash uchun markazdan qochma kuch $G_{ts}$va muhitning qarshilik kuchlari $F_c$ ni solishtirish lozim bo`ladi [33].

Agar cho`kish Stoks qonuni bilan xarakterlansa (*Re < 0,2* ), oqimdan eng qichik zarralar ajraladi.$G_{ts} = Fc$ da quyidagiga ega bo`lamiz.

$$\frac{\pi d^3}{6} \bullet \rho\ \frac{[\omega_{(r)}]}{r} = 3\pi d_r \mu_c \frac{dr}{dt} \qquad (2.6)$$

O`zgaruvchilarni bo`lib va integrallab

$$\int_0^t d\tau = \frac{18\,\mu_c}{d_r^2\,\rho} - \int_{r_1}^{r_2} \frac{r dr}{[\omega_r\,(r)]} \qquad (2.7)$$

$$\tau = \frac{18\mu_c}{d_r^2\ \ \omega^2\,\rho} \cdot \ln\frac{r_2}{r_1} \qquad (2.8)$$

CHo`kma bilan chiqadigan zarralarning maksimal o`lchami quyidagicha aniqlanadi :

$$d_r = \sqrt{\frac{18\,\mu_c\ \ r_1\ \ V_c}{(\rho_1 - \rho)\,\omega_i}} \qquad (2.9)$$

Texnologik jarayonni modellashtirish - bu jarayon borishini xarakterlovchi ma`lumotlarni olish va shu asosda avtomatik boshqarish tizimini shakllantirish

hisoblanadi. Modellashtirishning en g ko`p tarqalgan turi, bu jarayonning kerakli bosqichlarini tasniflash uchun differentsial yoki chiziqli tenglamalarni ishlab chiqish. Hozirgi kunda jarayonga ta`sir etuvchi parametrlarni aniqlash, texnologik tizimni optimal boshqarishni tashkil etish uchun xisoblashlar aniq dasturlar asosida amalga oshirilmoqda [34].

SHu nuqtai nazardan, ushbu dissertatsiya ishida neft shlamini ajratish jarayonini to`liq ifodalovchi matematik modelni ishlab chiqish uchun o`zaro bog'langan uchta bosqich sistemasidan foydalandik:

- o`rganilayotgan ob`ektni matematik tavsifini ishlab chiqish;

-matematik tenglamalar tizimini echish usulini tanlash va modellashtiruvchi dastur shaklida uni joriy qilish;

- modelning ob`ektga monandligi (adekvatligi)ni aniqlash.

Texnologik jarayonning umumlashgan matematik modelini ishlab chiqishda, o`rganilayotgan qurilmaga kiruvchi va chiquvchi parametrlar aniqlandi: issiqlik sig'imi, temperatura koeffitsienti, tsiklonning tangentsional kirish trubasi diametri, maxsulot tezligi, maxsulot sarfi, tsiklonga kirayotgan shlam bosimi, tsiklonning tsilindrik qismiga asosan tangentsional trubaning o`rnatilish burchagi-0,0873 rad.

Taklif etilayotgan texnologik tizimda neft shlamlarini fazalarga ajratishni ikki bosqichda olib borilishi bo`yicha tahlillar amalga oshirildi. Buning uchun oqimlar yo`nalishini parallel va ketma-ket ta`minlash asosida ajratish samaradorligini oshirish masalalari ko`rib chiqildi. Neft shlamlarini ajratishning matematik modelini ishlab chiqishda birinchi navbatda normal sistema hosil qilish uchun aralashtirish jarayonini matematik modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Markazdan qochma kuch ta`sirida ishlovchi apparatlarda oqimlarning gidrodinamik strukturasini ideal aralashish modeli sifatida qarash o`rinli deb xisobladik. SHunga muvofiq neft shlami tarkibidagi qattiq faza va suyuq fazalarning o`zgarishi. Malumki tsiklonda fazalar bo`yicha oqimlarning gidrodinamik strukturasinii ideal aralashish modeli sifatida qarash mumkin. Neft tarkibida mavjud bo`lgan zarrachalarning , neft shlami va neft tarkibi bo`yicha kontsentratsiyalari o`zgarishini differentsial tenglama orqali ifodalash mumkin [35,37,38].

$$\frac{\partial a}{\partial \tau} = \frac{1}{\tau_{cp}}\left(a_m^{вх} - a_m^{вых}\right), \qquad (2.10)$$

bu erda τ_{cp} - qattiq fazaning ishchi kamerada o`rtacha bo`llish vaqti, s;

$a_m^{вх}$, $a_m^{вых}$ - qattiq faza tarkibida mavjud bo`lgan suyuq faza kontsentratsiyasi, %.

Mexanik qo`shimchalarning apparatda o`rtacha bo`lish vaqti :

$$\tau_{o`r} = \frac{m_{n.sh}}{G_{n.sh} + G_n} \qquad \tau_{o`r} = \frac{V_{n.sh} \cdot \rho_{n.sh}}{G_{n.sh} + G_n} \qquad (2.11)$$

$\tau_{o`r}$ - neft shlami tarkibida mavjud bo`lgan zarrachalarning apparatda bo`lishi vaqti, c;

Q_m^{kir} , Q_m^{chiq} - qattiq zarrachalarning apparatga kirayotgan va chiqayotgan toza neft va quyuqlashgan aralashmadagi mexanik qo`shimchalarning kontsentratsiyalari, %**.**

Toza neft kontsentratsiyasining o`zgarishi quyidagicha aniqlanadi. kontsentratsiyasi:

$$V_{n.sh} \cdot \rho_{n.sh} \cdot \frac{dQ_{n.sh}}{d\tau} = G_n^{kir} \cdot Q_n^{kir} + G_{n.sh} \cdot Q_{n.sh} - G_n^{chiq} \cdot Q_n^{chiq} \qquad (2.12)$$

$Q_{n.sh}^{kir}$, $Q_{n.sh}^{chiq}$ neft shlami fazasidagi mexanik zarrachalarning kirish va chiqishdagi kontsentratsiyasi.

TSiklondan chiqayotgan toza neft miqdorining o`zgarishi:

$$\frac{dG_{nsh.d}^{chiq}}{d\tau} = -\frac{1}{\tau_{o`r}}\left(K \cdot G_{nsh.d}^{chiq} - G^{chiq}{}_n\right) \qquad (2.13)$$

k- tsiklonning ajratish koeffitsienti.

$G_{nsh.d}^{chiq}$ - tsiklonning kirayotgan neft shlami va demulgator miqdori

$G^{chiq}{}_n$ - tsiklondan chiqayotgan toza neft miqdori

TSiklondan chiqadigan quyuqlashgan shlam miqdorini o`zgarishi:

$$\frac{dQ_{qm}}{d\tau} = -\frac{1}{\tau_{o`r}}\left((1-K)\cdot K\cdot G_{nshd}{}^{chiq} - G^{chiq}{}_{n}\right) \qquad (2.14)$$

Q_{qm} - quyuqlashgan massa

Toza neft tarkibidagi mexanik zarrachalar miqdorini o`zgarishi:

$$\frac{d_{q.m}}{d\tau} = -\frac{1}{\tau_{o`r}}\left(Q_{n.sh}{}^{kir} - Q_{n.sh}{}^{chiq}\right) \qquad (2.15)$$

bu erda: $Q_{n.sh}{}^{kir}, Q_{n.sh}{}^{chiq}$ - neft shlami fazasidagi mexanik zarrachalarning kirish va chiqish kontsentratsiyasi.

Bizning misolda markazdan qochma kuch ta`sirida neft shlami 2 ta fazaga ajraladi. Suv va neft fazasini birinchi faza deb, qattiq moddalarni aralashmasini ikkinchi faza deb qabul qilamiz va quyidagicha moddiy balansni tuzamiz.

Neft shlamlari omborlarda, transportirovka va burg'ulash jarayoni davomida hosil buladi. Bularni ikki turga bo`lish mumkin: qalqib yuruvchi neft shlamlari va cho`kma shaklda xosil bo`luvchi neft shlamlari.

1) Neftni qayta ishlash zavodi misolida 5000 tonna qalqib yuruvchi neft shlami tarkibida 65-70 tonnagacha mexanik aralashma 30-35 tonnagacha suv moddasi, 4900 tonna neft mavjud.

2) CHo`kma shaklda hosil bo`ladigan neft shlamlari tarkibiga esa 58-60% neft, 22% mexanik moddalar,18-20% suv bo`ladi.

Agar o`rtacha qiymatni oladigan bo`lsak 80% neft 12% mexanik aralashma va 6-8% suv bo`ladi. Demak tsiklonni ish unumdorligi o`rtacha 300 l/soat bo`ladigan bo`lsa xom-ashyo tarkibida 240 l neft 36 l mexanik aralashma va 24l suv mavjud.

$G_{n.sh}$ – apparatga kirayotgan neft shlamining massali sarfi 300 kg/s.
$X_n^{n.sh}$ –apparatga kirayotgan neft shlami tarkibida mavjud bo`lgan toza neftning massali ulushi.
$X_q^{n.sh}$ – apparatga kiraetgan neft shlami tarkibidagi qattiq zarrachalarning massali ulushi.
G_n- apparatdan chiqaetgan neftning massali sarfi kg/s.
X_n^n - apparatdan chiqaetgan neft oqimida mavjud bo`lgan toza neftning massali ulushi.
X_q^n - apparatdan chiqaetgan neft oqimida mavjud bo`lgan qattiq zarrachalarning massali ulushi.
G_q - apparatdan chiqaetgan qattiq zarrachalarning massali sarfi.
X_n^q - qattiq zarrachalar tarkibida mavjud bo`lgan neftning massa ulushi.
X_q^m – qattiq zarrachalar oqimidagi mexanik moddalarning massali ulushi.
Tenglamalar sistemasini tuzamiz.

$$G_{n.sh} \cdot X_n^{n.sh} = G_n \cdot X_n^n + G_q \cdot X_n^q \qquad (2.16)$$

$$G_{n.sh} \cdot X_q^{n.sh} = G_n \cdot X_q^n + G_q \cdot X_q^m$$

Ajralib chiqaetgan neft miqdori tarkibidagi qattiq zarrachagalar massali ulushi:
X_q^n = 0,055 ni, ajralib chiqaetgan qattiq modda oqimi tarkibida neftning massali ulushi X_n^q = 0,001 tashkil etsa, neft oqimi tarkibidagi toza neftning massali ulushi quyidagicha teng:

$$X_n^n = 1\text{-}0{,}055=0{,}945$$

Qattiq moddalar oqimi tarkibidagi mexanik zarrachalarning massali ulushi

$$X_q^n = 1\text{-}0{,}001= 0{,}999$$

Neftning apparatdan chiqishdagi massali sarfi
Neft oqimidagi toza neft miqdori

$$G_n \cdot X_n^n = 249 \cdot 0.945 = 235 \text{ kg/s.}$$

Neft oqimi tarkibidagi qattiq zarrachalar miqdori

$$G_n \cdot X_q^n = 249 \cdot 0{,}055 = 13{,}7 \text{ kg/s.}$$

Ajralib chiqaetgan qattiq modda miqdori

$$G_q \cdot X_n^q = 47.5 \cdot 0.001 = 0{,}047 \text{ kg/s.}$$

Ajralib chiqaetgan qattiq zarrachalar oqimini tashkil etgan mexanik zarrachalar miqdori

$$G_q \bullet X_q^m = 47,5 \bullet 0,999 = 47,45 \text{ kg/s.}$$



2.1-rasm. Texnologik jarayonning strukturaviy sxemasi

2.2. Rostlash ob`ektining uzatish funktsiyasi ishlab chiqish

Uzatish funktsiyasi (UF) deb, chiqish va kirish qiymatlarini operatorli (Laplas bo`yicha) tasvirini (noldanchapdabo`lgan) boshlang'ich shartlari nol' bo`lgan xoldagi nisbatlariga aytiladi.

YUqoridagilarni inobatga olib, rostlash ob`ektining uzatish funktsiyasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$W(p) = \frac{k}{Tp+1} \qquad (2.2.1)$$

bu erda: $k = \dfrac{G_{нш} \cdot X_н^{нш} - G_{нш} \cdot X_к^{нш}}{G_н \cdot X_н^н}$; $\qquad T = \dfrac{\rho_н \cdot V}{G_{нш}}$ (2.2.2)

bunda, *k*– kuchaytirish koeffitsienti;

T– vaqt doimiysi.

$$k = \frac{I_{\max} - I_{\min}}{F_{\max} - F_{\min}} \qquad (2.2.3)$$

bu erda: I_{max} va I_{min} – chiqish signallari;

F_{max} va F_{min} – datchikning o`lchash oralig'i (diapazon).

Tizimda ijro etuvchi mexanizm sifatida markazdan qochma nasos ishlatiladi. Ijro etuvchi mexanizmning texnik xarakteristikasiga asoslanib, u tizimda davriy bo`g'in bo`lib ulangan.

Gidrotsiklon – rostlash ob'ekti, birinchi tartibli inertsiyali zvenoni tashkil qiladi. Rostlash ob'ektining uzatish funktsiyasi :

